O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Xurmo

(FFV- 63:2020, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 28-iyuldagi 27/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV-63:2020 “Persimmons” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi. Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: www.unece.org/trade/agr

Xurmo bo‘yicha amaldagi qayta ko‘rib chiqilgan Standart Ishchi guruh tomonidan 2020-yilda ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan (sessiyalararo kelishuv tartib-taomili orqali) ECE/CTCS/WP.7/2020/9 hujjatiga asoslangan.

Standart maketga (2017) muvofiqlashtirilgan

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

XURMO

ХУРМА

PERSIMMONS

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026

I Mahsulotning ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga yangi uzilgan holatda yetkazib beriladigan Diospyros kaki L. f. turidan yetishtirilgan navli xurmolarga (kaki) nisbatan qo‘llaniladi. Sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan xurmo bundan mustasno.

II Sifatga oid qoidalar

Standartdan maqsad saralash va qadoqlashdan keyingi xurmo mahsulotining sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagilar kuzatilishi mumkin:

• taranglik va yangilikning bir oz yo‘qolishi

• «Eksra» navidan boshqa navlarga mansub mahsulotlar uchun — ularning rivojlanishi va tez buzilishga moyilligi sababli sifatining bir oz yomonlashishi

Mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan har qanday mahsulotni namoyish qilishi, sotuvga taklif etishi, yetkazib berishi yoki boshqa usulda marketing qilishi mumkin emas. Mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu muvofiqlikning ta’minlanishi uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

Har bir nav uchun maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chetlanishlar hisobga olingan holda, barcha navlardagi xurmo quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• butun, gulkosachasi saqlangan holatda (gulkosacha bandli yoki bandsiz, quruq va jigarrang bo‘lishi mumkin)

• sog‘lom; iste’mol uchun yaroqsiz holga keltirgan chirish yoki buzilish alomatlari bo‘lgan mahsulotlar bundan mustasno

• toza, deyarli har qanday ko‘rinadigan yot moddalardan xoli

• deyarli zararkunandalardan xoli

• zararkunandalar yetkazgan va mag‘ziga ta’sir qilgan shikastlanishlardan xoli

• ortiqcha tashqi namlikdan xoli

• har qanday begona hid va ta’mdan xoli

Xurmoning rivojlanishi va holati quyidagilarni ta’minlay oladigan darajada bo‘lishi kerak:

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• tashish, yuklash va tushirishga bardosh bera olsin
• manzilingizga qoniqarli holatda yetib kelishi.

B. Yetilish talablari

Xurmoning rivojlanishi va yetilish holati ularning pishish jarayonini davom ettira olishini va qoniqarli yetilish darajasiga yetishini ta’minlashi kerak.

Mevaning kamida pastki uchdan bir (1/3) qismi sariq rangda bo‘lishi yoki meva rangi sarg‘ayish bosqichida bo‘lishi lozim.

C. Tasnifi

Xurmo quyida belgilanganidek uchta navga ajratiladi:

(i) Oliy nav

Ushbu navdagi xurmo yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular navga xos xususiyatlarni o‘zida aks ettirishi lozim.

Mevaning eti sog‘lom bo‘lishi kerak.

Gulkosachasi butun bo‘lishi lozim.

Xurmo mevalarida nuqsonlar bo‘lmasligi kerak, mahsulotning umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanishchanligi va qadoqdagi taqdimotiga (tovar ko‘rinishiga) ta’sir etmaydigan juda kichik yuzaki nuqsonlar bundan mustasno.

(ii) Birinchi nav

Ushbu navdagi xurmo yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular navga xos xususiyatlarni o‘zida aks ettirishi lozim.

Meva eti mutlaqo buzilmagan bo‘lishi kerak.

Biroq, mahsulotning umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanishchanligi va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir etmaslik sharti bilan quyidagi mayda nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shakldagi kichik nuqson;
• quyosh ta’sirida yuzaga kelgan va meva umumiy yuzasining 1/8 qismidan oshmaydigan rangdagi kichik nuqsonlar;
• po‘stloqning quyidagilardan oshmaydigan kichik nuqsonlari;
• gulkosacha sohasidan pastga qarab tushuvchi ingichka po‘kaksimon chiziqlar uchun — gulkosacha va meva uchi o‘rtasidagi masofadan;
• boshqa po‘stloq nuqsonlari uchun — meva umumiy yuzasining 1/16 qismidan;
• umumiy maydoni 2 sm² dan oshmaydigan yengil shikastlanishlar;
• gulkosachaning biroz shikastlanishi;
• meva ko‘ndalang kesimi umumiy maydonining 1/3 qismidan oshmaydigan ichki rangning biroz o‘zgarishi.

(iii) Ikkinchi nav

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ushbu navga yuqoriroq navlarga kiritish talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga muvofiq keladigan xurmo mevalari kiradi.

Mevaning eti jiddiy nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak.

• Xurmo o‘zining sifati, saqlanishchanligi va qadoqdagi tovar ko‘rinishiga doir asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi sharti bilan quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shakldagi nuqsonlar;

• quyosh ta’sirida yuzaga kelgan va meva umumiy yuzasining 1/4 qismidan oshmaydigan rangdagi nuqsonlar;

• po‘stloqning quyidagilardan oshmaydigan nuqsonlari:

• gulkosacha sohasidan pastga qarab tushuvchi po‘kaksimon chiziqlar uchun — gulkosacha va meva uchi o‘rtasidagi masofaning ikki baravaridan;

• boshqa po‘stloq nuqsonlari uchun — meva umumiy yuzasining 1/8 qismidan;

• umumiy maydoni 3 sm² dan oshmaydigan yengil shikastlanishlar;

• gulkosachaning shikastlanishi;

• meva ko‘ndalang kesimi umumiy maydonining 1/2 qismidan oshmaydigan ichki rangning biroz o‘zgarishi.

III. Kalibrlashga oid qoidalar

O‘lcham mevaning ekvatorial kesimidagi maksimal diametri, vazni yoki qadoqdagi mevalar soni bo‘yicha aniqlanadi.

O‘lcham bir xilligini ta’minlash maqsadida, bitta qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagicha bo‘lishi kerak:

(a) Diametri bo‘yicha o‘lchangan xurmo uchun: 20 mm dan oshmasligi

(b) Vazni bo‘yicha o‘lchangan xurmo uchun: quyidagi jadvalga muvofiq:

Vazni grammda	Qadoqdagi mevalar o‘rtasidagi maksimal ruxsat etilgan farq grammda
50 - 90	20
85 - 130	25
125 - 190	35
180 - 230	50
> 220	70

(c) Soni bo‘yicha o‘lchangan xurmo uchun: (a) bandiga muvofiq. «Eksra» va I navlar uchun o‘lcham bir xilligi majburiydir.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Sotishning barcha bosqichlarida har bir mahsulot turkumida (partiyasida) ko‘rsatilgan nav talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlarga yo‘l qo‘yiladi.

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(i) Oliy nav

Ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq I nav talablariga muvofiq keladigan xurmo mevalari uchun soni yoki vazni bo‘yicha jami 5 foizgacha chetlanishga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu chetlanish doirasida jami ko‘pi bilan 0,5 foiz mahsulot II nav sifat talablariga javob beradigan mevalardan iborat bo‘lishi mumkin.

(ii) Birinchi nav

Ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq II nav talablariga muvofiq keladigan xurmo mevalari uchun soni yoki vazni bo‘yicha jami 10 foizgacha chetlanishga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu chetlanish doirasida jami ko‘pi bilan 1 foiz mahsulot na II nav sifat talablariga, na minimal talablarga javob beradigan mevalardan yoki chirigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

(iii) Ikkinchi nav

Soni yoki vazni bo‘yicha jami 10 foizgacha ushbu nav talablariga ham, minimal talablar ga ham javob bermaydigan xurmo mevalariga ruxsat etiladi. Ushbu chetlanish doirasida jami ko‘pi bilan 2 foiz mahsulot chirigan mevalardan iborat bo‘lishi mumkin.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha navlar uchun (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa): o‘lchamlarga doir talablarga javob bermaydigan xurmo mevalari uchun soni yoki vazni bo‘yicha jami 10 foizgacha chetlanish ga yo‘l qo‘yiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning ichidagisi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqishga, navga, sifatga va o‘lchamga (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa) ega xurmolardan iborat bo‘lishi kerak.

«Eksra» navi uchun bir xillik talabi rangga ham tegishlidir.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi uning butun ichki qismiga mos kelishi lozim.

B. Qadoqlash

Xurmo mahsulot tegishli darajada himoya qilinadigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza va mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Savdo tavsiflari tushirilgan materiallardan xususan, qog‘oz yoki yorliqlardan foydalanishga, agar matn chop etish yoki yorliq yopishtirish zaharli bo‘lmagan bo‘yoq yoki yelim bilan bajarilgan bo‘lsa yo‘l qo‘yiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mevalarga yakka tartibda yopishtiriladigan yorliqlar olib tashlanganda o‘zidan sezilarli yelim izlarini qoldirmaydigan va po‘stloq nuqsonlariga olib kelmaydigan bo‘lishi kerak. Alohida mevalarga lazer yordamida tushirilgan ma’lumotlar et yoki po‘stloq nuqsonlarini keltirib chiqarmasligi lozim.

Qadoqlar har qanday begona moddalardan xoli bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqning[1] bir tomonida guruhlangan aniq va o‘chmaydigan qilib yozilgan hamda tashqaridan ko‘rinadigan quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

_____

[1] Tamg‘alashga oid ushbu qoidalar transport qadog‘i ichidagi iste’mol qadoqlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga nisbatan tatbiq etiladi.

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va jo‘natuvchi/eksport qiluvchi:

Nomi va manzili (masalan, ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa mamlakat nomi) yoki agarda ushbu tizimni qo‘llaydigan mamlakat BMT YIdK (UNECE) ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo‘lsa, milliy organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi[2].

B. Mahsulot tavsifi

• «Xurmo» (kaki, kaki xurmosi), agar qadoqning ichidagi mahsulot tashqaridan ko‘rinmaydigan bo‘lsa

• Navning nomi

Nav nomi uning sinonimi bilan almashtirilishi mumkin. Savdo nomi[3] faqat nav nomi yoki uning sinonimiga qo‘shimcha ravishda ko‘rsatilishi mumkin.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

• Kelib chiqish mamlakati[4] va ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi.

D. Tovar tavsiflari

• Nav
• O‘lcham (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa), quyidagilar orqali ifodalanadi:
• minimal va maksimal diametrlar yoki
• minimal va maksimal vazn ko‘rsatkichlari yoki
• mahsulot birliklari soni

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

2015 yilda qabul qilingan.

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Oxirgi marta 2020 yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

2021 yilgi standartlarning Namunaviy shakliga muvofiqlashtirilgan.

2017-yilda Standart maketga muvofiqlashtirilgan.

BMT YIdK (UNECE) ushbu standartni qo‘llash bo‘yicha tushuntirish tusidagi rasmli broshyurani nashr etgan. Ushbu nashrni BMT YIdKdan quyidagi manzil orqali olish mumkin: www.unece.org/trade/agr/welcome.htm

---

[2] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kod belgisi qo‘llanilgan taqdirda, «qadoqlovchi va jo‘natuvchi (yoki shunga tenglashtirilgan qisqartmalar)» degan havo la kod belgisiga bevosita yaqin joyda ko‘rsatilishi kerak hamda kod belgisidan oldin (agar u kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa) uni tan olgan mamlakatning ISO 3166 standarti bo‘yicha mamlakat/hudud kodi ko‘rsatilishi lozim.

[3] Savdo nomi huquqiy muhofaza qilinishi so‘ralayotgan yoki allaqachon muhofaza qilingan tovar belgisi yoxud har qanday boshqa tijorat nomi bo‘lishi mumkin.

[4] To‘liq yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bibliografiya

[1] www.unece.org/trade/agr/welcome.htm

STANDARTLAR INSTITUTI #N1BXCW101Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI